

Date: 3rd December-2024

XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDA DIQQATNING O'RNI

Sharapova Dildoraxon Baxtiyarovna

International school of finance and technology science insituti katta o'qituvchisi,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), sharapovad@isft.uz

Axmedova Lola Eldor qizi

International school of finance and technology science insituti Xorijiy tillari (Ingliz tili) yo'nalishi, 1-bosqich 24-XTA-01 guruhi talabasi, axmedovalola2007@gmail.com

Sadullayeva Sadoqat Anvar qizi

International school of finance and technology science insituti Xorijiy tillari (Ingliz tili) yo'nalishi, 1-bosqich 24-XTA-01 guruhi talabasi, sadullayevasadoqat4@gmail.co

Annotatsiya: Xorijiy tillarni o'rganishda diqqatning o'rni katta ahamiyatga ega. Diqqat nafaqat tillarni tez o'rganish, balki tinglab tushunish va muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishda ham asosiy omil hisoblanadi. Diqqatni to'g'ri boshqarish xorijiy tillarni o'rganishda muvaffaqiyatga erishishning kalitidir. Maqola diqqatni rivojlantirish usullari, faol tinglash, fokusni oshirish uchun maxsus mashqlar va maqsadga yo'naltirilgan o'quv rejalarini ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit sozlar: diqqat, diqqatni jamlashning avfzalliklari, amaliy maslahatlar, diqqatni boshqarishning asosiy strategiyalari, diqqat va xotiraning o'zaro bog'liqligi.

Аннотация: Внимание очень важно при изучении иностранных языков. Внимание является основным фактором не только быстрого изучения языков, но и формирования навыков восприятия на слух и общения. Правильное управление вниманием – залог успеха в изучении иностранных языков. В статье приведены рекомендации по методам развития внимания, активного слушания, специальным упражнениям на повышение концентрации внимания, разработке целенаправленных планов обучения.

Ключевые слова: внимание, преимущества концентрации, практические советы, основные стратегии управления вниманием, взаимосвязь внимания и памяти.

Annotation: Attention is very important when learning foreign languages. Attention is the main factor not only in learning languages quickly, but also in developing listening and communication skills. Correct attention management is the key to success in learning foreign languages. The article provides recommendations on methods for developing attention, active listening, special exercises to increase concentration, and developing targeted learning plans.

Keywords: attention, benefits of concentration, practical tips, basic strategies for managing attention, the relationship between attention and memory.

Kirish. Inson yaralibdiki, bir birlarini tushunish va muloqotda bo'lish uchun til orqali aloqa qiladi. Aynan bugungi kunda til bilishning ahamiyati ham sezilarli ortib bormoqda. Til o'rganish – biz uchun ko'p imkoniyatlar eshigini ochib berayotgani hech



Date: 3rdDecember-2024

kinga sir emas. Hozirgi davrimizda har bir kasbni egallash uchun ham til bilish muhim o'ringa ega.

Xorijiy tillarni o'rganishda diqqatning o'rnini biz o'ylaganimizdan ancha muhimdir, chunki til o'rganish jarayoni bizdan ko'p yangi so'zlarni o'rganish, ko'plab yangi ma'lumotlarni xotiramizda saqlashni talab qiladi. Bundan tashqari til bilishimiz uchun biz ko'plab grammatik qoidalarni va har bir so'zlarni tog'ri tallafuz qilishni o'rganishimiz zarur. Bu jarayonda diqqat biz uchun asosiy kalit manbaidir. Gap shunda-ki, yangi ma'lumotni o'rganmoqchi bo'lganimizda, diqqatimizni o'sha malumotga qarata bilishimiz kerak. Zero, biz shundagina malumotlarni qabul qilib, o'rgana olamiz. Ushinskiy ta'kidlaganidek, diqqat – bu har bir bilish jarayonimizga kirishning yagona eshigidir. Eshiklarimizni xotira, idrok, tafakkur, nutq tomon yo'naltira olsak maqsadga yetishishimiz oson bo'lishi shubhasiz.

Asosiy qism. Xorijiy tillarni o'rganishda diqqatni jamlashning ahamiyati yuqori. Diqqat – o'quv jarayonida muhim rol o'ynaydigan psixologik jarayon bo'lib, xorijiy tilni o'rganishda uning ahamiyati yanada ortadi. Til o'rganish nafaqat yangi so'zlarni eslab qolishni, balki ularni to'g'ri talaffuz qilish, gapda qo'llash va umumiy kontekstni tushunishni talab qiladi. Bularning barchasi diqqatni jamlash bilan uzviy bog'liqdir.

Diqqatni jamlashning quyidagi afzalliklari mavjud: Birinchidan, til qoidalarini tezroq o'zlashtirish: Grammatik qoidalarni o'rganishda diqqatni to'liq qaratish ular orasidagi bog'liqliklarni tushunishni osonlashtiradi. Ikkinchidan, eslab qolish qobiliyatini oshirish: Xorijiy so'zlarni takrorlash jarayonida diqqatni jamlash ma'lumotning uzoq muddatli xotiraga o'tishini tezlashtiradi. Uchinchidan, xatolarni kamaytirish: Xususan, imlo va tala uzdagi nozik tafovutlarni o'z vaqtida sezib, to'g'irlashga yordam beradi.

Xorijiy tillarni o'rganishda diqqatni jamlash uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni berish o'rinli:

- Qisqa muddatli, lekin muntazam mashg'ulotlarni rejalashtirish;
- Chalg'ituvchi omillardan chetlashish;
- Mashg'ulot oldidan diqqatni jamlashga qaratilgan nafas olish mashqlarini bajarish.

Yuqorida keltirilgan amaliy tavsiyalar asosida shuni ta'kidlash joiz-ki, xorijiy tillarni o'rganishda diqqatni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish zarurati mavjud. Til o'rganishda muvaffaqiyat ko'p jihatdan diqqatni samarali boshqarish qobiliyatiga bog'liq. Shu o'rinda diqqatni boshqarishning quyidagi asosiy strategiyalarini keltirib o'tamiz:

1. Diqqatni bo'laklarga bo'lish: Murakkab mavzularni kichik qismlarga ajratib, har bir qismga alohida e'tibor qaratish;
2. Faol tinglash: Xorijiy tilni o'rganuvchi faol tinglash orqali tala uz va intonatsiyani yaxshiroq o'zlashtiradi;
3. Interaktiv darslar: Texnologiyadan foydalanib, qiziqarli mashqlar yordamida diqqatni uzoqroq ushlab turish mumkin.

Xorijiy tillarni o'rganish orqali biz nafaqat ishda yoki ta'limda muvoffaqiyatga erishishimiz, shuningdek, boshqa bir qator ruhiy barqarorlikka ham erishish mumkin. Jumladan, til o'rganish jarayoni charchoqni kamaytiradi, diqqatning pasayishini oldini



Date: 3rdDecember-2024

oladi va samaradorlikni oshiradi. Diqqatni samarali boshqarish strategiyalarini qo'llash xorijiy tilni o'rganishni nafaqat osonlashtiradi, balki uni qiziqarli jarayonga aylantiradi.

Til o'rganish jarayonida diqqat va xotiraning o'zaro bog'liqligi muhim ahamiyatga ega. Diqqat yangi ma'lumotni qabul qilishga xizmat qilsa, xotira uni uzoq muddatli saqlashga yordam beradi. Diqqat va xotiraning bog'liqligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. O'rganilgan ma'lumotni kodlash: Diqqat yangi ma'lumotni xotirada kodlash jarayonini tezlashtiradi.

2. O'rganilganlarni eslab qolish: Diqqatni o'quv jarayoniga qaratish eslab qolishni sezilarli darajada yaxshilaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joiz-ki, diqqat va xotirani muvofiqlashtirish orqali xorijiy til o'rganish samaradorligini oshirish mumkin. Bu ikki omilni rivojlantirish o'quv jarayonining muvaffaqiyat kalitidir. Yangi so'zlarni diqqat bilan o'rganish, mavzularni o'rganishda vizualizatsiya qilish, diagrammalardan foydalanish, ijodiy yondoshish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baddeley, A. (2007). Working Memory, Thought, and Action. Oxford University Press.
2. Craik, F., & Lockhart, R. (1972). Levels of Processing: A Framework for Memory Research. Journal of Verbal Learning and Verbal Behavior.
3. Ellis, R. (2003). The Study of Second Language Acquisition. Oxford University Press.

